

## Ijtimoiy va iqtisodiy ong o'zaro bog'liqligi

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

1-bosqich 105-guruh talabalari

G'ulomova Gulbegim, Tojiboyeva Nigora, Ibragimova Robiya

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy ong, iqtisodiy ong, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ma'naviy qadriyatlar, sotsiologik yondashuv, iqtisodiy islohotlar, globallasuv va ong, jamiyat ongini shakllantirish.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy ong va iqtisodiy ong tushunchalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy ong insonlar ongining jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga munosabati sifatida ko'rilsa, iqtisodiy ong esa ishlab chiqarish, iste'mol, taqsimot va iqtisodiy manfaatlarga asoslangan fikrlar tizimini aks ettiradi. Maqolada ushbu ong shakllarining tarixiy rivojlanishi, ularning zamonaviy jamiyatda qanday namoyon bo'layotgani hamda bir-biriga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy ongni shakllantirishda ommaviy axborot vositalari, ta'lim tizimi va davlat siyosatining o'rni ham ko'rib chiqiladi.

Bugungi kunda ijtimoiy ong va iqtisodiy ong tushunchalari jamiyat taraqqiyotining ajralmas ikki yo'nalishidir. Ijtimoiy ong odamlarning axloqiy, siyosiy, madaniy hayotini anglashiga xizmat qilsa, iqtisodiy ong ularning real ehtiyojlari va moddiy manfaatlarini idrok etishida muhim vosita hisoblanadi. Har ikkisi ham bir-birini to'ldiradi va rivojlantiradi. Bugungi globallasuv davrida iqtisodiy ong kuchaymasdan turib, jamiyatning ijtimoiy ongi yuksalishi qiyin. Shu sababli bu mavzu dolzarb bo'lib, uni chuqur tahlil qilish katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ijtimoiy va iqtisodiy omillar muhim ahamiyatga ega. Bu omillar insonlarning ongida aks etib, ijtimoiy va iqtisodiy ong shaklida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy ong — bu jamiyat a'zolarining ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar, e'tiqodlar va g'oyalar tizimi bo'lsa, iqtisodiy ong — kishilarning iqtisodiy faoliyat, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol jarayonlari haqidagi bilim va qarashlaridir. Ushbu ong shakllari bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy ong insonlarning ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlari, g‘oyalari, qadriyatlari, e‘tiqodlari, siyosiy va ma‘naviy qarashlar tizimidir. Bu ong jamiyatdagi real ijtimoiy munosabatlarning aksidir. Ijtimoiy ongning shakllanishida tarixiy, madaniy, diniy va siyosiy omillar muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiy ong esa kishilar va ijtimoiy guruhlarining ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste‘mol jarayonlari haqidagi bilimlari, qarashlari, baholari va maqsadli yo‘nalishlaridir. Bu ong kishilarning iqtisodiy hayotdagi faoliyatini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy ong va iqtisodiy ong bir-biridan ajralmas holda rivojlanadi. Iqtisodiy sharoitlar ijtimoiy onging asosini belgilaydi. Masalan, odamlarning daromadi, mehnat sharoiti yoki mulk egaligi ularning hayotga, davlatga yoki adolatga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Ijtimoiy ong esa iqtisodiy harakatlarni rag‘batlantiradi yoki susaytiradi. Odamlar orasida mehnatga, boylikka, xarajatga bo‘lgan qarashlar – ularning iqtisodiy faoliyatini belgilaydi.

Marksistik falsafaga ko‘ra, ijtimoiy mavjudlik ijtimoiy ongni belgilaydi. Ya‘ni iqtisodiy munosabatlar (ishlab chiqarish kuchlari, mulk shakllari) odamlarning ongini shakllantiradi. Ammo ong ham iqtisodiy hayotga ta‘sir qiladi — u islohotlarni rag‘batlantiradi yoki to‘xtatadi. Zamonaviy sotsiologik yondashuvlar esa bu ikki ong turining o‘zaro dinamik aloqada ekanligini ta‘kidlaydi. Masalan, iste‘mol madaniyati, reklama, ijtimoiy stereotiplar – bular iqtisodiy qarorlarimizni belgilaydi.

- Ma‘naviy qadriyatlar (masalan, halollik, mehnatsevarlik) kuchli bo‘lgan jamiyatlarda iqtisodiy o‘sish barqaror bo‘ladi.

-Iqtisodiy inqirozlar esa ijtimoiy ongda norozilik, umidsizlik, ishonchsizlik paydo qiladi.

- Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni (1990-yillarda sobiq SSSR davlatlarida) ijtimoiy ongi tubdan o‘zgartirdi: erkinlik, individual manfaat, raqobat g‘oyalari keng tarqaldi.

Sobiq ittifoq davrida ijtimoiy ong shakllarining sinfiy va partiyaviyligi xakida xaddan tashkari ko‘p gapirildi, ammo ularning umuminsoniy axamiyatga ega bo‘lgan. Jihatlarini xususida deyarli farkiyuritiladi. Mustakillik sharofati tufayli bunday biryoqlamalikka chek qo‘yilmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov ta‘kidlaganidek, «Mustaqil O‘zbekiston O‘zbekiston kuch kudrati manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatidarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, axil qo‘shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an‘analarni qayta tiklash, ularga

yangi mazmun bagishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir». Ijtimoiy ong ijtimoiy borliqdan orqada qolishi ham mumkin. Unga sabab, ulardagi o'zgarishlar bir vaqtda yuz bermasligidadir. Shuningdek ijtimoiy ongning dinaxlok singari shakllariga muayyanlik yashovchanlik xosdir. Ulardagi mazmun goya va karashlar an'anaviy aylanib, ular uzoq vaqt sakqanib qoladilar.

Ijtimoiy ongning nisbly mustaqilligi aning ijtimoiy borlikdan o'tib Ilgarilab ketishda ham namoyon bo'ladi. Aynan buyuk kishilar, olimlar jamiyatning rivojlanish qonunlarini taqid qilib tarixiy taraqqiyotning umumiy tendentsiyalarini anqlab, kelajakda oldindan ko'rishlari mumkin. Ular o'z davridan ancha olg'a ketgan nazariyalani yaratishlari insoniyatga taraqqiyotning yo'lini bir necha o'n yillar oldin ko'rsatishlari mumkin. Jumladan, ongning nisbly mustaqilligi qarashlar, g'oyalar, nazariyalarning jamiyat taraqqiyotidagi faol ro'likda ham namoyon bo'adi. Jamiyatda taraqqiyot talabidagidek stilyali emas, balki ongli kishilarning, muayyan g'oyalar, qarashlar kishilarning faoliyati uchun qo'llanma bo'ladi, ularni birlashtiradi va muayyan vazifalarni xal qilishga yo'naltiradi. Ilg'or g'oyalar, nazariyalar jamiyatning o'lga tomon xarakat qilishini osonlashtiradi. Ijtimoiy ongning mohiyati uni individual ong bilan solishtirganda yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Xo'sh, xo'sh individual ong nima? Individual ong - jamiyatda yashovchi muayyan guruh ellat millatga mansub bo'lgan ayrim kishining ongidir. U alohida hir kishining miyasida ob'ektiv voqelikning aks etishi jarayonida yuzaga keladigan fikrlari, his -tuyg'ulari, kayfiyatlari, tasavvurlari, tushunchalari, mulohazalari, fikrlarining yig'indisidir. Yoki boshqacha aytganda, jamiyatdagi voqelik real borliqning alohida olingan shaxsning ongida aks etishidir. Individual ong jamiyatdan, insoniyatdan, madaniyatdan tashqarida mavjud bo'a olmaydi, bulardan tashqarida ayrim kishi fikirlay olmaydi. Shu ma'noda har kandy individual ong ijtimoiy xususiyatga ham ega bo'adi, ya'ni ayrimlikda umumiylik ham o'z ifodasini topadi.

Ijtimoiy ong darajalari. Ijtimoiy ruhiyat va mafkura voqealikka aks ettirish darajasiga qarab ijtimoiy ong odatiy ongga ham bo'linadi. Odatiy ong kishilarni kundalik faoliyatlari xayotiy tajribalari asosida vujudga kelgan oddiy xulosalar qarashlar mazmunidan iborat bo'lib, kishilarni kundalik xayotdagi voqealarini aks ettiradi va rivojlantiradi. Odatiy ongda xalq donishmandligi an'ana va urf-odatlar, kundalik turmush qoida va talabalari tabiat haqidagi bilimlar shuningdek turli uydirmalar, noto'g'ri qarashlar ham o'z ifodasini topadi. Ko'p asrlik hayotiy tajribalar ham turli

holda, shaklda o'zida mujassamlantirgan xalq maqollari bunga misol bo'la oladi. Odatiy ong sof xolda uchramaydi. Chunki inson murgaklik davridagi o'z atrofdagilar, so'ngra kitoblar ta'lim tizimi yordamida inson zakovati erishgan ilmiy bilimlarni ham o'zlashtirishga kirishadi. Shu bois, ijtimoiy ongning ham o'z tarkibiy qismlari mavjud sanaladi. Iqtisodiy ong esa ijtimoiy ongning tarkibiy qismlaridan biridir. Iqtisodiy ongning yetarli darajada rivojlanganligi jamiyanda mavjud iqtisodiy xolatining noto'g'ri talqin etilishiga erkin iqtisodiy faoliyatining cheklab qo'yilishiga, boshqaruv tizimining nomukammalligiga va xodimlarning malakasizligiga olib keladi. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, aholi iqtisodiy ongi takomillashuvini ta'minlash davlatning muhim vazifalaridan biriga aylandi. Iqtisodiy ong rivojining asosiy omillaridan biri bo'lgach xo'jalik yuritish erkinligining asosi ta'minlandi. Iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi uchun keng yo'l ochildi. Iqtisodiy ong iqtisodiy tafakkurning natijasi hisoblanadi. Iqtisodiy bilmilar tizimini tashkil qilish, tushunchalar, kategoriyalar ong orqali o'zlashtiriladi. Iqtisodiy g'oya, dastur tafakkur natijasida bo'lib, ishda, ularning mehnat va iqtisodiy faoliyatida ishonchli yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilishi uchun kishilar ongida mustaxkamlanishi kerak. Iqtisodiy ong, birinchidan, iqtisodiy g'oyalar, blitmlar, qarashlar, xulosalar, xis-tuyg'ular, kayfiyat va boshqa manaviy turulmalar majmui sifatida maydonga chiqadi. Ikkinchidan, Iltinoty-iqtisodiy ongga alohida olingan kishilarning barcha iqtisodiy qarashlari hamda xalqlar, sinflar va boshqa kishilar birligining tarixiy shakllari uchun axamiyatli bo'lgan g'oyalar ham kiradi. Uchinchidan, iqtisodiy ong nafaqat kishilar tomonidan anglab yetilgan bilimlar, balki ularga va boshqa hodisalarga munosabat hamdir. Iqtisodiy taraqqiyotning har bir davriga ma'lum iqtisodiy tafakkur mos keladi. Hozirgi kunda iqtisodiyotga taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bosqichi xarakterlidir.

Iqtisodiy jarayonda kishilar mehatni hal qiluvchi vazifani bajaradi. Ular jamiyat ishlab chiqarish jarayonining sub'ektlari sifatida maydonga chiqishlari uchun yetarli darajada malaka, ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur. Bu esa odamlar onglilik darajasi yetarli bo'lishi talab qiladi. Iqtisodiy ong iqtisodiy hayot sohasida kishilar tomonidan erishilgan natijalarni, jamiyat tomonidan qo'lga kiritilgan iqtisodiy tajrihani nisbatan samumlashgan holda aks ettiradi. U iqtisodiy siyosaming ta'sirchanligiga, boshqaruvning sifatiga har bir xodim mehnatining samaradorligiga bevosita ta'siriko'rsatadi, iqtisodiy qonunlardan foydalanishning muhim ekanligini anglatadi. Har qanday jamiyatning iqtisodiy ong, pirovardida undagi alohida shaxslar iqtisodiy ong darajasining majmui sifatida maydonga chiqadi. Ma'lumki, shaxsning iqtisodiy

madaniyati uni o'zlashtirgan iqtisodiy billmlari, malakalarini amaliyotda, turmush tarzda me'yor va an'analarda ro'yobga chiqarish borasidagi faol mehnati bilan bog'liq. Demak, shaxsning iqtisodiy ongi uning o'zini rivojlantirish faoliyatining natijasi xisoblanadi. Iqtisodiy ongning rivojlanganlik darajasi har bir muayyan jamiyatdagi iqtisodiy mafkura, xo'jalik yuritish usullari va shart-sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, iqtisodiy hayot ob'ektiv iqtisodiy qonunlar majmui asosida asosida harakat qiladi. Bu qonunlarning mazmunini ommaviy ravishda teran anglab yetish iqtisodiy ong taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan biridir. Iqtisodiy ongning yetarli darajada rivojlanganligi jamiyatda mavjud iqtisodiy xolatining noto'g'ri talqin etilishiga erkin iqtisodiy faoliyatining cheklab qo'yilishiga, boshqaruv tizimining nomukammalligiga va xodimlarning malakasizligiga olib keladi. O'zbekiston o'z o'z müstəqilligiga erishgach, aholi iqtisodiy ongi takomillashuvini ta'minlash davlatning muhim vazifalaridan biriga aylandi. Iqtisodiy ong rivojining asosiy omillaridan biri bo'lgach xo'jalik yuritish erkinligining asosi ta'minlandi. Iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi uchun keng yo'l ochildi. Iqtisodiy g'oya, dastur tafakkur natijasida bo'lib, ishda, ularning mehnat va Iqtisodiy faoliyatida ishonchli yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilishi uchun kishilar ongida mustahkamlanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy ong va iqtisodiy ong jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zaro murakkab va ko'p qatlamli aloqalarni aks ettiruvchi tushunchalardir. Ular orasidagi bog'liqlik har bir bosqichda o'zining alohida shakl va mazmunida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy ong jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari, mulk shakllari, iqtisodiy siyosati orqali shakllansa, ijtimoiy ong esa insonlarning tarixiy tajribasi, qadriyatlar, e'tiqodlari va madaniy-ma'naviy merosi orqali shakllanadi. Bu ikki ong bir-birini rag'batlantiruvchi yoki to'xtatuvchi kuch sifatida ishtirok etadi. Masalan, rivojlangan iqtisodiy ong ijtimoiy ongda mehnatga, innovatsiyaga, halollikka bo'lgan ijobiy munosabatni kuchaytiradi. Aksincha, passiv yoki noaniq ijtimoiy ong iqtisodiy islohotlarni susaytiradi, jamiyatda norozilik kayfiyatini kuchaytiradi. Bugungi globallashtirish davrida iqtisodiy yutuqlarni ijtimoiy qadriyatlar bilan muvofiqlashtirish nihoyatda muhim. Innovatsion taraqqiyot, raqamli iqtisodiyot, “yashil iqtisodiyot” kabi tushunchalar ijtimoiy ongda o'ziga xos yangi yondashuvlarni shakllantirmoqda. Shu bois, iqtisodiy islohotlar faqat texnikaviy jarayon emas, balki jamiyat ongi, ma'naviyati va madaniyatini yuksaltirish jarayoni sifatida qaralishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'. Mahammadjanov (2024). An'anaviy va zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy ong tizimidagi transformatsiyalashuv tendensiyalari. – Toshkent: O'zMU xabarlari.
2. Usmanova, S. & Igamberdiyev, D. (2024). Ijtimoiy falsafa taraqqiyotida qadriyatlar o'rni. – Universal xalqaro ilmiy jurnal.
3. V. Qo'chqorov (2007). Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
4. Karl Marks (1867). Kapital. – Klassik iqtisodiy nazariya.
5. A. To'rayev (2020). Iqtisodiy ong va jamiyat taraqqiyoti o'rtasidagi o'zaro ta'sir. – Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, №2.



Research Science and  
Innovation House